

BARKAMOL SHAXS KAMOLOTIDA TARBIYANING O'RNI

*Munisa Aybek qizi Ibaydayeva
Rimajon Nurberdi qizi Davletova
Ruxsora Ravshanbek qizi Qalandarova
Behzod Ro'zimboy o'g'li Otajonov
Nukus Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika fakulteti 4-bosqich talabalari*

"Agar rejangiz bir yillik bo'lsa sholi eking. Rejangiz o'n yilni ko'zlasa daraxt o'tqazing, Agar mo'ljaligiz yuz yil bo'lsa farzandlaringizni o'qiting"
Konfutsiy

Annotatsiya: Maqolada demokratik jamiyatda tarbiyaning roli, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda tarbiyalanganlikning ahamiyati hamda bugungi kun yoshlarining ongini ilmga bilimga nisbatan yanada chanqoq qilib rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Shaxs, tarbiya, tarbiyalanganlik, yoshlarning ilmiy dunyoqarashi,

Farzand tarbiyasi murakkab pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyachidan katta ma'suliyat talab qiladi. Farzand tarbiyasi bu-murakkab algoritmi, kuchli iroda, sabr matonatni talab qiladigan, uzoq yillar davomida shakllantirilib boriladigan tajriba mahsulidir. Bola bamisoli bir oq qog'oz, qancha sayqallasang shunchalik jilolanadigan bebaho olmos kabidir. Buyuk jadidchimiz, mahoratli pedagog Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida inson kamolotida tarbiyaning o'rnini alohida ta'kidlab, "Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan, lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo'lib chiqadi" deb ta'kidlaydi. 'Inson shaxsi kamolotining ajralmas bo'lgi bu shaxsning ijtimoiylashuvidir. Ijtimoiylashuv-bu bolaning boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish orqali o'zini anglaydigan, o'zi tug'ilgan madaniyatni tushunadigan aqlli mavjudotga aylanish jarayonidir. Ijtimoiylashuv agentlari-bu eng muhim ijtimoiylashuv jarayonlari yuz beradigan tuzilmaviy guruhlaridir. Barcha madaniyatlarda bola ijtimoiylashuvining asosiy agenti oila hisoblanadi. Bundan tashqari, tengdoshlar guruhlari, maktab, ommaviy axborot vositalari ham ijtimoiylashuv agentlaridir.

Bola tarbiyasining mukammal bo'lib shakllanishida tashqi muhit bilan bir qatorda, irsiy omillarning ham roli kattadir. Turli xil yuqimli kasalliklar ham inson shaxsi kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Har bir otana o'z zimmasiga farzand tarbiya qilishdek muhim vazifani olar ekan, avvalo shuni unutmasligi kerakki, farzand bu bizning ko'zgidagi aksimizdir. Tarbiya, odob kabi fazilatlar oiladan boshlanadi, maktab, kollej oliy o'quv yurtlarida shakllantirib rivojlantirib boriladi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugun bitta kitob o'qigan bola ertaga televizor ko'rib o'tirgan o'nta bolani boshqarishi mumkin". Ta'lim, axborotlar umuman olganda barcha-barchasini ko'chadan olish mumkin, lekin tarbiya aynan oiladan olinadi. Xalqimizda bir gap bor "Olmaning tagiga olma tushadi". Bugungi kunda bizning eng oliy maqsadimiz komil insonni tarbiyalash bo'lsa, biz bu ishni aynan oiladan boshlashimiz kerak. Chunki bugungi yoshlar kelajak avlodlarimizning ota-onalaridir. Kelajagimiz yoshlar qo'lida ekan biz pedagoglarning zimmamizda mas'uliyatli yuk turganini qalban his etmog'imiz darkor.

Farzand tarbiyasida ahamiyat berilishi kerak bo'lgan muhim jihatlardan biri unda insoniylikni shakllantirishdir. Zero, "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin". Odam jamiyatda qanday o'rinda, qanday mansabda bo'lishidan qat'i nazar, avvalo inson bo'lishi kerak. Insoniylik fazilatlarini o'zida mukammal shakllantira bilgan har qanday soha mutaxassisi jamiyatda o'z mavqeiga munosib kadr bo'lib yetishib chiqadi. Har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun eng kamida uzluksiz o'qish va izlanish lozimdir. Inson qachonki kitob o'qishni to'xtatsa, fikrlashdan ham to'xtaydi, rivojlanishdan ortda qoladi, zamon bilan hamnafas bo'lish talabiga javob bera olmay qoladi. Bugungi kun yoshlarini global muammolar bilan tanishtirish, ularda bunga qarshi ma'naviy bilimni shakllantirish ota-ona hamda muhtaram pedagoglarimizning sidqidildan bajarishi kerak bo'lgan burchidir. XXI asr kompyuter texnologiyalari asri deya nom olgan ekan, demak yoshlarimizning kompyuter texnologiyalari sohasida ko'plab bilimga ega bo'lishlari, innovatsion texnologiyalar yaratish kabi g'oyalarni qo'llab quvvatlash ayni bugungi kunning asosiy talabidir. Barkamol shaxs tarbiyasida oilaning roli kattadir. Oila ahil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi milliy farovonlik asosidir. Shunday qilib, tarbiyalanganlik-jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga bo'ysunish va o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan xatti-harakatlardan o'zini tiya bilishdir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ma'lumotning qanaqaligining ahamiyati yo'q muhimi tarbiya oliy bo'lishi kerak. Insonning tarbiyalanganlik darajasi jamiyatda shaxslararo munosabatda yaqqol ko'rinadi. Mutaxassis o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishida oilada olingan tarbiyaning o'ni beqiyosdir. Inson umri davomida jamiyat bilan bevosita aloqa o'rnatadi. Har bir individ shaxs sifatida rivojlanib borar ekan, umri mobaynida turli tajribalar to'playdi. Olingan

bilim va ko'nikmalari faoliyat jayonida rivojlanib boradi. Gumanistik psixologiya asoschilaridan biri bo'lgan, amerikalik psixolog Abraxam Xarold Maslou o'z asarlarida: Shaxsning markaziy xususiyati bu uning umumiyligi va butunligidadir deb ko'rsatib o'tgan. Odamning ehtiyoji unga ta'lim va tarbiya berish jarayonida shakllanadi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajriba, ko'nikma, malaka, odat ma'naviyat, qadriyatlar bilan yaqindan tanishishi ularni o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Abraxam Maslou o'zining ehtiyojlar iyerarxiyasida shuni ta'kidlab o'tadiki, insonning ehtiyojlari besh bosqichda amalga oshiriladi. Bular:

Birinchi guruh ehtiyojlariga fiziologik ehtiyojlar kiradi, ya'ni ovqatlanish chanqoqlik hissi;

Ikkinchi guruh ehtiyojlariga xavfsizlikka nisbatan ehtiyojlar o'zini himoya qilish hissi, ya'ni uy-joy boshpana;

Uchinchi guruh ehtiyojlariga yaqinlik, do'st orttirish, sevish sevilish, oila qurish ehtiyoji;

To'rtinchi guruh ehtiyojlariga bilish ehtiyoji, hurmatga bo'lgan ehtiyoj, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishga intilish; o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj;

Beshinchi guruh ehtiyoji bu aynan o'z-o'zini qaror toptirish ya'ni avtoaktualizatsiyaga erishish ehtiyoji.

Yuqorida keltirib o'tilgan ehtiyojlar bir-biri bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Ushbu ehtiyojlar iyerarxiyasi shu qadar mukammal tuzilganki, inson bu ketma-ketlikka nomuvofiq holda o'z avtoaktualizatsiyasiga erisha olmaydi.

Inson dunyoga kelgan kundan boshlab o'z-o'zini shakllantirish va rivojlantirish uchun harakat qilib keladi. O'z oldiga oliy maqsadlar qo'yadi, maqsadga erishish yo'lida turli xil to'siqlarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi. Baxtga qarshi yana shunday insonlar ham borki, ularning hayotda hech qanday maqsadi yo'q, intilish degan his tuyg'uga ega emas, jamiyatda o'z o'rniga ega emas. Xo'sh, insonlar orasida nima sababdan bunday individual psixologik farqlar mavjud?

Mening fikrimcha, bir xil tipga oid bo'lgan inson zotining bir-biridan bu darajada farqlanishiga asosiy sabab avvalo irsiy omillar bo'lsa, undan keyingi o'rinni albatta tashqi muhit omillari noto'g'ri tarbiya, osog'lom turmush tarzi kabi muammolar deb o'ylayman. Bolalarni yoshligidan mehnatga o'rgatish loqaydlikning rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillarni o'rganib chiqish bu muammoning yechimi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'kidlab o'tganidek, Bugun bitta kitob o'qigan bola ertaga televizor ko'rib o'tirgan o'nta bolani boshqarishi mumkin.

Agar bizning bosh maqsadimiz komil insonni tarbiyalash bo'lsa, biz bu ishni aynan hozir boshlashimiz kerak. Chunki ertangi kun yoshlar qo'lida. Yoshlar bizning kelajagimiz. Ertamiz egalarini buyuk shaxs bo'lib yetishib chiqishi uchun biz

pedagoglar mas'uliyatimizni yanada chuqurroq his etmog'imiz darkor. Bugungi kunda yosh avlod uchun shunday sharoitlar yaratib qo'yilganki, ulardan to'g'ri foydalana bilgan har bir o'rganuvchining kelajagi porloq bo'lishiga aslo shubha yo'q.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishim lozimki, inson hamisha va har jabhada o'zini rivojlantirishga intilib yashasa har qanday sohada muvaffaqiyatga erishishga qodir. Inson yaratuvchidir, inson o'z kelajagining bunyodkoridir. Inson biror bir ishni qilishni oldiga maqsad qilib qo'ysa albatta unga erishadi. Eng muhimi harakatdan to'xtamaslik. Bu borada shaxsan o'zimning fikrim, shaxs kamolotida tarbiyaning roli juda katta. Bir kun kelib mendan muvaffaqiyatlaringizning siri nimada deb savol berishsa, hech o'ylanib o'tirmasdan, ota-onam, ustozlarim bergan tarbiyadan deb javob bergan bo'lar edim. Ota-onaga munosib farzand, ustozlarga munosib shogird bo'la olish, kerak bo'lsa kelajakdagi farzandlarimizga munosib ota-ona bo'lishdek yuk zimmamizda ekan, biz buni aqlan anglamog'imiz hamda bunga yarasha o'zimizni rivojlantirmog'imiz kerak. Inson qayerda kim bo'lishidan qat'i nazar, unga tarbiya bergan insonlarni uyaltirishga haqqi yo'q. Zamon yoshlarniki, zamon biz yoshlarniki!!!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.I.XAYDAROV, N.I.XALILOVA "UMUMIY PSIXOLOGIYA" Toshkent-2009
2. X.IBRAGIMOV, SH.ABDULLAYEVA "PEDAGOGIKA NAZARIYASI" Toshkent-2008 131bet
3. G'aybulloh as-salom. "Ezgulikka chog'lan odamzot" Toshkent-2000
4. SH.R. BARATOV, L.Y.OLIMOV, O.R.AVEZOV "PSIXOLOGIYA NAZARIYASI VA TARIXI" Toshkent-2019